

IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH

Umarova Zevi Odilovna

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: zeboumarova1967@gmail.com

Nurboyeva Zilola Yangboy qizi

Jizzax politexnika instituti 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada investitsiya faoliyati bo‘yicha qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarning qonunchilik bazasini mustahkamlashga ta‘siri, investitsiya dasturi, iqtisodiyotga jalb qilingan to‘gridan-to‘gri investitsiyagarni jalb etish amaliyoti tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisod, samaradorlik, investitsiyalar, kapital quyilmalar, investitsion muhit, to‘gridan-to‘gri investitsiyalar, eksport, import, diversifikatsiya.

УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

Умарова Зеви Одилевна

Старший преподаватель кафедры Экономики и менеджмента Джизакского

политехнического института

E-mail: zeboumarova1967@gmail.com

Нурбоева Зилола Янгибой кизи

Студентка 4 курса Джизакского политехнического института

В статье рассматривается влияние принятых нормативных документов на укрепление законодательной базы регулирования инвестиционной деятельности, значение инвестиционной программы, анализируется практика привлечения прямых инвестиций в экономику.

Ключевые слова: экономика, эффективность, инвестиции, капитальные вложения, инвестиционный климат, прямые инвестиции, экспорт, импорт, диверсификация.

MANAGEMENT OF INNOVATION PROJECTS IN ECONOMIC DEVELOPMENT CONDITIONS

Umarova Zevi Odilovna

Senior Lecturer, Department of Management, Jizzakh Polytechnic Institute

E-mail: zeboumarova1967@gmail.com

Nurboyeva Zilola Yangboy qizi

4th year student of Jizzakh Polytechnic Institute

The paper analyses the impact of statutory acts on investment activities onto strengthening of the statute. In addition, investment programme as well as practice of attraction of foreign direct investments to economy is described.

Keywords: economy, efficiency, investment, capital flows, investment climate, foreign direct investments, export, import, diversification.

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichida davlatlar sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bir tomondan mavjud resurslardan samarali foydalanish, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini innovatsion texnologiyalar asosida ta'minlash hamda yuqori darajadagi ixtisoslashish sharoitida kechmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish innovatsion islohotlarning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiyotda o'ziga xos barqaror mavqeyiga ega bo'lishi bevosita innovatsiya va investitsiyalar faoliyatiga bog'liqdir.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqobatbardoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat yuritayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni boshqarish innovatsion munosabatlar va jarayonlarni boshqarish tizimidir. Bu doimiy ravishda yangi g'oyalarni izlash, jarayonlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surish va amalga oshirishga asoslangan.

Korxonada innovatsiyalarni boshqarishni tashkil etish funksiyalarining quyidagi turlari mavjud:

- funksional;

- rivojlanish va o‘shish strategiyasi;
- mahsulotni yangi yo‘nalishlarga kiritish;
- majmuaning raqobatdosh ustunliklarini o‘rganish;
- majmuaning rivojlanishining asosiy vazifalari, maqsadlari va istiqbollari belgilash;
- raqobatbardoshlikni shakllantirish va tashkilotning dinamik rivojlanishi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma‘lum hudud iqtisodiyotida sanoatni shakllantirish va rivojlantirib borish, milliy xo‘jalikning sanoat tarmoqlari taraqqiyoti darajasiga mos bo‘lishini talab etadi. Moddiy va intellektual salohiyatiga tayanib davlat rivojlanishini strategik belgilash va keyinchalik sanoatning samarali, intensiv omillaridan foydalanishga o‘tish qonuniy bir holdir.

Sanoatni rivojlantirishda yangi sanoat tarmoqlarini barpo etish, mavjud tarmoqlarni rivojlantirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish, sanoat korxonalarini boshqaruvchi va yangicha ishlab chiqarishni ta‘minlovchi intellektual asosni yaratishni ham taqozo etadi.

“Innovatsiya” tushunchasini kengaytirish – yaxshi va to‘g‘ri fikrdir. Bizning farovonligimiz faqatgina yangi texnik yechimlarning joriy etilishi va faoliyatga kiritilishiga emas, balki jamiyat rivojlanishi va taraqqiyotga ham asoslangandir. Prezidentning 30.04.2021 yildagi “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [PQ-5101](#)-son qarori qabul qilindi. U bilan quyidagilar tasdiqlandi:

✚ 2021-2022 yillarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash tadbirlari parametrlari;

✚ 2021 yilda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning manzilli ro‘yxatlari.

Shuningdek, MIZ va KSZ hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarining tashqi infratuzilmasini qurish va ta‘mirlash buyurtmachilari belgilandi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda 1 sentyabrga qadar 2022 yilda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash uchun

150 mln AQSH dollari ekvivalentidagi mablag‘larning xalqaro moliya institutlari hisobidan jalb etilishini ta’minlash topshirildi.

Kompleks dasturga asosan Jizzax viloyatida 2022-2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,4 baravar, sanoat mahsulotlari hajmi 1,5 baravar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 1,2 baravar, xizmatlar hajmi 3,2 baravar hamda qurilish ishlari hajmi 1,2 baravarga oshiriladi.

2019-2021 yillarda Jizzax shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Davlat dasturi asosida jami 101 ta loyiha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Loyihalarning 44 tasi sanoat yo‘nalishida, 52 tasi xizmat ko‘rsatish, 5 tasi qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida amalga oshiriladi. Shu tariqa loyiha qiymati 2 trillion 748 milliard so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan. Tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari hisobiga 477 milliard so‘mlik, tijorat banklarining kredit evaziga 500 milliard so‘mlik, sanoat, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan 2 milliard 71 million so‘mlik investitsiya o‘zlashtiriladi. Mazkur loyihalarni amalga oshirilishi hisobiga 3 ming 267 ta yangi o‘rinlari yaratiladi.

“Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida 27 ta loyiha amalga oshirilib, 5 ming 300 ga yaqin ish o‘rni yaratilib, oxirgi yillarda uning faoliyati takomillashtirilib biznes uchun qulayliklar yanada kengaytirildi. Hozir bu erda ko‘p turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Ular qatoriga 2022 yil oktyabrda “Iruskon” qandolat korxonasi ham qo‘shildi. Korxonada Rossiya, Turkiya-Germaniya va Italiya, tajribasi asosida “Deya” brendi bilan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Yillik quvvati 12 ming tonna va 100 ga yaqin kishi ish bilan ta’minlangan. Kelgusi yil ikkinchi bosqich uchun Germaniya va Turkiyadan yana 5 million dollarlik uskunalari olib kelish rejalashtirilgan bo‘lib buning natijasida 550 nafar yangi ish o‘rni yaratiladi.

Iqtisodiy zonadagi yana bir korxonalar –“Master Building Products” ma’suliyati cheklangan jamiyatida yiliga 3 million dona quvur va fitting mahsulotlari, qurilish materiallari tayyorlanadi va 600 ga yaqin ish o‘rni yaratiladi.

Viloyatda yangi sanoat korxonalarini barpo qilish uchun so‘nggi olti yilda qariyb 5 milliard dollar investitsiya jalb qilingan. Buning natijasida 2 mingta yaqin yangi korxonalar tashkil qilinib, ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 baravarga oshdi. Ayni vaqtda elektrotexnika, optik tola, avtomobil, murakkab kimyoviy moddalar, energotejamkor materiallar kabi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu sohasida 54 ming aholi band. Viloyatdagi sanoat eksporti 1,8 baravar oshib, 166 million dollarga etdi.

Viloyatda kamida 2 ming Megavatt qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun salohiyat borligini inobatga olgan holda, 270 Megavatt quyosh energiyasi quvvatlari ishga tushirilib, buning hisobiga 236 million kilovatt-soat ishlab chiqarilib, jami 71 million kub metr gaz tejaladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, milliy iqtisodiyotda har bir soha va tarmoqning har tomonlama mukammal ravishda rivojlanishi, uning huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hamda tashkiliy jihatlarining ta'minlanishi bevosita olib borilayotgan islohotlarning jadallashuvi va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" amalga oshirishga oid Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. T.: 2017. 143b.
2. "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi qonun talablariga muvofiq 2021 yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligi hamda 2022 yilda bajarilishi belgilangan ustuvor vazifalari . Jizzax haqiqati 2022 yil 4 mart
3. "Jizzax viloyati sanoati rivojlangan hududga aylanmoqda" Prezident Sh.Mirziyoev hududlarning ijtimoiy- iqtisodiy rivoji bilan Jizzax viloyatiga tashrifi. Jizzax haqiqati 2023 yil 15 fevral
4. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zebi Odilovna Umarova. "IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNING O'RNI." Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах) 3.7 (2021): 25-29.
5. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Madina Muminova. "РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ." Актуальные научные исследования в современном мире 3-8 (2019): 44-47.
6. Umarova, Z. O., and F. Ya Obidova. "SIGNIFICANCE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY." Actual scientific research in the modern world 2-6 (2019): 53.
7. Obidova, Feruza Yaxyoevna. "QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTI." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 74-78.
8. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.
9. Umarova, Zevi Odilovna, and Feruza Yaxyoevna Obidova. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 203-207.

10. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 208-215.
11. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.
12. Yahyoyevna, Obidova Feruza. "FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION." World Economics and Finance Bulletin 18 (2023): 72-77.